

**ZAMONAVIY DARSLARDA IJTIMOIY
SHAKLLARNING O'RNI: INTERAKTIVLIK SARI YO'L**

Shermamatova Adiba Sanjar qizi
(*O'zDJTU talabasi*)

Annotatsiya: *Ushbu maqola xorijiy tillarni o'rgatish va o'rganishda ijtimoiy shakllarning ahamiyatini o'rganishga bag'ishlangan. Maqolada besh xil ijtimoiy shakllarning: frontal dars, umumiy suhbat (plenum), guruh bo'lib ishlash, sherik bilan ishlash (partnerlik), yakka tartibdagi ishning bir-biridan farqi, ularning ijobiy va salbiy tomonlari va ulardan qaysi vaqtida foydalanish afzalligi tushuntirib o'tilgan.*

Kalit so'zlar: *Frontal dars, umumiy suhbat, guruh bo'lib ishlash, sherik bilan ishlash, yakka tartibdagi ish.*

**РОЛЬ СОЦИАЛЬНЫХ ФОРМ В СОВРЕМЕННЫХ УРОКАХ: ПУТЬ К
ИНТЕРАКТИВНОСТИ**

Шермаматова Адиба Санжар кизи
(студентка УзГУМЯ)

Аннотация: *Настоящая статья посвящена анализу роли социальных форм в процессе преподавания и изучения иностранных языков. В исследовании рассматриваются пять основных форм организации учебной деятельности: фронтальная работа, общая дискуссия (plenum), групповая работа, работа в парах и индивидуальная работа. Подчёркиваются их отличительные особенности, преимущества и недостатки, а также обосновано целесообразное применение каждой формы в зависимости от целей и этапов учебного процесса.*

Ключевые слова: *фронтальный урок, пленарное обсуждение, групповая работа, парная работа, индивидуальная работа.*

THE ROLE OF SOCIAL FORMS IN MODERN LESSONS: THE PATH TOWARD INTERACTIVITY

Shermamatova Adiba Sanjar qizi

(Student of Uzbekistan State World Languages University)

Abstract: This article is devoted to the analysis of the role of social forms in the teaching and learning of foreign languages. The study examines five main forms of classroom organization: frontal instruction, plenary discussion, group work, pair work, and individual work. Their distinctive features, advantages and disadvantages are highlighted, and the appropriate use of each form is justified depending on the goals and stages of the learning process.

Keywords: frontal instruction, plenary discussion, group work, pair work, individual work.

"Chet tilidan aloqa vositasi sifatida foydalanishni faqatgina ochiq-oydin va yetarli darajada tez-tez muloqot qilish orqali o'rganish mumkin." (Butzkamm, 1989: 78. Edmondson (1995: 176) esa shunday deydi: "Chet tilini o'rganishda muvaffaqiyatga erishishdagi hal qiluvchi omil — bu darsdagi o'zaro muloqotning yo'lga qo'yilishidir."

Ammo chet tili darslarida so'zlashuvdag'i ishtirok qanday ko'rinishda? O'qituvchi darsda qancha gapiradi-yu, o'quvchilar qancha gapirishadi. Yaxshi tashkillashtiriladigan xorijiy til darsida muloqot qilishni qanday yo'lga qo'yish mumkin? Ushbu maqolada mana shu savollarga javob olishingiz

ham muhim ahamiyatga egadir.

Frontal dars shakli (Frontalunterricht)ni misol qilib oladigan bo'lsak, tadqiqotlar mumkin.

Yuqoridagi Butzkammning iqtibosidan anglash mumkinki, til o'rganuvchilar darsda ko'proq muloqotda bo'lislari kerak. Va bu jarayonda muloqotning sifati, ya'ni qanday muloqot qilayotganlari shuni ko'rsatadiki, bu holatda asosan tilga oid, ammo amaliy bo'limgan muloqot yuz beradi.

Shuningdek, darsda ko'pincha o'qituvchi diqqat markazida bo'ladi: o'qituvchi tashkil qiladi, tushuntiradi, savol beradi, ko'rsatmalar beradi, baholaydi va o'quvchilarining gaplarini takrorlaydi. O'quvchilar esa shunchaki javob qaytaradi. Ularning gaplari ko'pincha faqat o'qituvchiga qaratilgan bo'ladi, kam hollarda esa o'zaro muloqot qilishadi.

Darsda o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi nutq nosemmitsrikligini (nomutanosibligini) kamaytirish va o'quvchilar o'rtasidagi o'zaro aloqani rivojlantirishning eng samarali

usullaridan biri bu – ijtimoiy o‘rganish shakllarini (Sozialformen) tez-tez almashtirib borishdir. Bu orqali o‘quvchilarning nutq faolligi ortadi, guruh ichidagi ijtimoiy o‘rganish kuchayadi va kurs muhitida ijobiy o‘zgarishlar yuz beradi.

“Sozialformen” tushunchasi bilan dars jarayonida o‘qituvchi va o‘quvchilar o‘rtasidagi hamkorlik qanday tashkil etilishi nazarda tutiladi. Darsda qo’llash mumkin bo‘lgan quyidagi ijtimoiy o‘rganish shakllari mavjud:

- 1. Frontal dars (o‘qituvchi diqqat markazida bo‘lgan dars)**
- 2. Umumiy suhbat yoki plenum (ochiq sinf muhokamasi)**
- 3. Guruhda ishslash (kichik yoki katta guruh)**
- 4. Juftlikda ishslash (partnerlik)**
- 5. Yakka tartibdagi ish (Einzelarbeit)**

Har bir ijtimoiy shakl darsning ma’lum bir bosqichida o‘ziga xos foydaga ega va muayyan dars jarayoniga ko‘ra qo’llaniladi. Shuning uchun darsda ijtimoiy shakllarni muntazam ravishda almashtirib turish muhim sanaladi

Bundan tashqari o‘qituvchilar tomonidan dars jarayonida tanlanadigan ijtimoiy shakl ko‘plab omillarga bog‘liq. Bu tanlov, albatta, o‘quvchilarning madaniy va pedagogik muhitiga, ya’ni o‘quv madaniyatiga bog‘liq bo‘lishi mumkin. Biroq amaliyotda ko‘pincha bu tanlov o‘qituvchining o‘zida mayjud bo‘lgan noaniqlikni kamaytirish va tanish bo‘lgan interaktiv usullarga tayanish istagi bilan belgilanadi.

Shu bois, interaktiv jarayonlarni tashkil qilishda aslida o‘qituvchining “yaxshi dars” haqidagi tasavvuri kuchliroq rol o‘ynaydi. Bu tasavvur o‘zining o‘qituvchilik falsafasiga, shaxsiy didiga va o‘zining talabalik davridagi o‘rganish tajribalariga tayanadi.

Shunday ekan, til o‘rgatuvchilar darsda aynan qanday ijtimoiy shaklni tanlashning sabablari ustida chuqurroq o‘ylab ko‘rishi muhimdir. Chunki bu qarorlar nafaqat dars sifati, balki o‘quvchilar bilan samarali muloqot va hamkorlikni shakllantirishda ham katta ahamiyatga ega.

Izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, odatlarni o‘zgartirish unchalik oson emas va ko‘pincha qanday ish va ijtimoiy shakllarni qachon va qanday qo’llash lozimligi borasida o‘rgatuvchilarda ham ishonchsizlik mavjud bo‘ladi. Shu sababli, biz o‘zimizga savol berishimiz kerak: Qanday ish va ijtimoiy shakllar yordamida qaysi o‘quv maqsadlariga yaxshiroq erishish mumkin?

Masalan, juftlikda ishslash uy vazifasini o‘zaro tuzatish uchun foydali bo‘lishi mumkin, guruhda ishslash esa o‘quvchilarning jamoada ishslash qobiliyatini rivojlantiradi, frontal dars esa darsni tashkil qilish bo‘yicha ko‘rsatmalar berishda eng samarali usul bo‘lishi mumkin.


O‘qituvchi o‘quv maqsadiga qarab ish va ijtimoiy shakllarni mos va moslashuvchan tarzda qo’llashi lozim. Buning uchun esa yuqorida tanishib chiqqan ijtimoiy shakllarning

afzalliklari va kamchiliklarini chiqurroq o'rganamiz va har bir sotsial turlar va ularning ijobjiy va salbiy tomonlariga alohida to'xtalib o'tamiz.

1. Frontal dars

Yena shahridagi Fridrix-Shiller universitetining "Chet til sifatida nemis tili" yo'nalishida o'qiyotgan talabalaridan maktab davrida qaysi ijtimoiy shaklda dars ko'proq o'tilgani so'ralganda, kelib chiqqan natijaga ko'ra maktab davrida dars vaqtining taxminan 60–70 foizi frontal dars shaklida o'tgan, taxminan 15–20 foizi juftlikda yoki yakka tartibda ishlashga to'g'ri kelgani va atigi 5 foizga yaqini guruhda ishlash shaklida bo'lganligi ma'lum bo'ldi. Demak, talabalar maktabda asosan frontal dars shaklida o'rganganlar.

"Frontalunterricht" (frontal dars)da sinfonadagi partalarning joylashuvi ham muhim ahamiyatga egadir, chunki odatta bu dars shakli ikki tomonlama tuzilmada o'tadi, ya'ni bitta shaxs (o'qituvchi yoki talaba) tinglovchilar guruhibiga qarata so'zlaydi. Shu sababli, frontal dars nafaqat o'qituvchining nutqini, balki o'quvchining taqdimoti yoki qisqa ma'ruzalarini ham o'z ichiga olishi mumkin.



(frontal dars jarayonoda partalarning joylashuvidan na'muna)

Frontal darsdagi ikkita shaklni farqlab olamiz:

1. O'qituvchi ma'ruza qiladigan holat (Lehrervortrag)

2. Umumiy sinf suhbati / plenumdagi ish (Unterrichtsgespräch / Arbeit im Plenum)

O'qituvchining ma'rzasida odatta u uzoqroq gapiradi – masalan, grammatik qoidani tushuntirishi yoki tili o'rganilayotgan mamlakat madaniyatiga oid ma'lumot berishi mumkin (masalan: Germaniyada pasxa bayrami qanday nishonlanadi?).

Plenumdagi ishda ham o'qituvchi asosiy kommunikatsion shaxs bo'lib qoladi, ya'ni savollar beradi, va ularga turli o'quvchilar javob beradi. Biroq bu yerda savol-javob tartibi o'zgaradi: o'quvchilar bir-birlariga ham savollar berishlari va javob berishlari mumkin.

Shunday qilib, nafaqat o'qituvchi—o'quvchi, balki o'quvchi—o'quvchi o'rtasidagi muloqot ham yuzaga keladi.

Frontal darsda (Frontalunterricht) haqiqatdan ham vaqt tejaladi. Uni yaxshi rejalashtirish mumkin va o'quvchilarni (TN – Teilnehmer) yaxshi boshqarish imkonini beradi. Frontal dars, masalan, yangi mavzuni tanishtirish uchun juda mos keladi: bunda o'qituvchi mavzuni tushuntiradi yoki unga yo'naltiruvchi savollar orqali o'quvchilar bilan birga ishlab chiqadi.

Bu ijtimoiy shakl shuningdek doskadan yozib olish, uy vazifalarini muhokama qilish yoki xatolarni tahlil qilish uchun ham ishlatiladi. Hatto o'quvchilar tomonidan tayyorlangan taqdimotlar (referatlar) uchun ham frontal dars shakli mos keladi.

Ammo, dars jarayonining kuchli assimetrik tuzilishi tufayli (ya'ni o'qituvchi gapiradi va savol beradi, o'quvchilar esa faqat tinglaydi va javob beradi) frontal dars kamroq qo'llanilishi kerak va uzoq davom etmasligi lozim.


Darsda ushbu usulni qo'llashdan oldin quyidagi savollarga aniqlik kiritib olish tavsiya etiladi: ya'ni qachon qancha vaqt va eng muhimi – qaysi maqsadda bu shaklni ishlatmoqchisiz?

Shuningdek, frontal darsning o'rmini boshqa bir ijtimoiy shakl bilan (masalan, umumiy suhbat – Plenum) almashtirish imkonи bormi – shu haqida ham o'ylab ko'ring.

2. Umumiy suhbat (Plenum)

Frontal darsdagi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi iyerarxik munosabat bu yerda (ya'ni plenumda) demokratikroq dars jarayoniga aylanadi. O'quvchilar bir-biri bilan o'zaro muloqotga kirishadi, o'qituvchi esa tashqaridan boshqaruvchi emas, kurs jarayonining faol ishtirokchisiga aylanadi.

Buni ta'minlash uchun oldindan to'g'ri qatorda joylashtirilgan stollarni to'rtburchak yoki aylana shaklda joylashtirish kerak.



(umumiy suhbat jarayoni uchun partalar joylashuviga misol)

Plenumda biror mavzu o‘qituvchining yo‘naltiruvchi savollari orqali o‘quvchilar bilan birga ishlab chiqiladi. Shuning uchun bu shakl “erarbeitendes Unterrichtsgespräch” (ya’ni: birgalikda ishlab chiqiladigan dars suhbati) deb ataladi.

Plenum, shuningdek munozaralar (diskussiyalar) uchun,

juftlik yoki guruh ishidan so‘ng natijalarni taqdim etish va mustahkamlash uchun, o‘quvchilarning taqdimotlari (referatlari) uchun ham eng mos ijtimoiy shakldir.

Plenumdagi suhbatlar butun kursni bir butun guruh sifatida jipslashtirishi mumkin.


Haussermann va Piepho (nemis tilini o‘qitish bo‘yicha metodistlar) plenumni bozor maydoniga o‘xshatishgan – bu yerda butun guruh vaqtı-vaqtı bilan bir joyga yig‘iladi: tajribalar almashiladi, taqqoslanadi, ochiq muhokama qilinadi, natijalar maqtaladi, tanqidlar aytildi, savollar beriladi.

Shunga qaramay: Garchi bu dars shaklida o‘quvchilar bir-biri bilan muloqotda bo‘lishsa ham, ko‘pincha o‘qituvchi baribir eng ko‘p gapiradigan bo‘ladi, va o‘quvchilar fikr bildirayotganda ham aynan unga murojaat qilishadi.

Shu sababli, kommunikatsiyaga yo‘naltirilgan darslarda juftlik va guruh ishlari ajralmas (zaruriy) bosqichlardir.

3. Guruh bo‘lib ishlash

Guruh ishida o‘qituvchi topshiriq beradi va mas’uliyatni guruhlarga topshiradi.



(Rasmda
necha
Buning

guruhlarni shakllantirish uchun bir
namunalarni ko‘rishingiz mumkin.)

afzallikkleri aniq sezilib turibdiki,
o‘quvchilarning so‘zlashish ko‘nikmasi miqdor jihatdan ham, sifat jihatdan ham
ortadi. Gapirish yanada tabiiy bo‘ladi, chunki bu haqiqiy fikr almashinuvi hamda real
muloqot hisoblanadi. Guruh ichida munozaralar olib boriladi, takliflar ilgari suriladi, qabul
qilinadi yoki rad etiladi, maqtovlar, tanqidlar, va boshqa turli nutq shakllari yuz beradi.
Shuningdek, ijtimoiy o‘rganish (ya’ni boshqalar bilan ishlash), va har bir ishtirokchining
shaxsiy javobgarlik hissi rivojlanadi. Guruhda ishlash ichki farqlarga moslashish
(Binnendifferenzierung) uchun eng yaxshi ijtimoiy shakldir

Tajribalar shuni ko‘rsatadiki, eng ma‘qul guruh hajmi — 3-4 nafar, maksimal 5 nafar
o‘quvchidan iborat bo‘lishi lozim. Va guruh bo‘lib ishlashning yana bir ijobiy tomoni


shundaki, o'quvchilar o'qituvchining nazoratisiz ishlaganda erkinroq gapirishadi, va xato qilish yoki o'zini masxara qilinishidan qo'rqish hissi kamayadi. Bu ayniqsa o'zlashtirishi sekinroq bo'lganlar uchun juda foydali. Guruhda o'quvchilar dars materialini chuqurroq o'zlashtirishadi, va agar guruhdagi muhit ijobiy bo'lsa, sinergiya effekti paydo bo'ladi: ya'ni guruh natijasi – hamma a'zolarning g'oyalari qo'shilganda – bir kishining yakka ishlagandagi natijasidan yaxshiroq bo'ladi.

4. Sherik bilan ishlash

Juftlikda ishlash (Partnerarbeit) ayniqsa takrorlash va mashq bosqichlarida, til faoliyatini avtomatlashtirish va o'rganilgan materialni chuqurlashtirish uchun juda mos keladi. Shuningdek, bu shakl refleksiya (fikr yuritish) va tuzatish bosqichlarida, o'quvchilar o'rtasida o'rganish jarayoni va tajriba almashish uchun ham foydalidir. Shu sababli 1990-yillarda o'tkazilgan bir tadqiqotda, agar o'qituvchilar darsda ijtimoiy shakllarni qo'llashi kerak bo'lsa, ular ko'proq juftlikda ishlashni afzal ko'rishgan (Macaro 1997, iqtibos keltirilgan: Schwerdtfeger 2001, 11-bet). Agar o'quvchilardan ularning afzalliklarini so'ralsa, ular ham chet tili darslarida aynan juftlikda ishlashni eng yaxshi deb hisoblashadi.

Buning sabablarini esa ketma- ket ko'rib o'tamiz:

- O'rganuvchilar o'zaro qo'llab- quvvatlash orqali topshiriqlarni motivatsiyali va ijodiyroq bajaradilar;
- Bir-biridan o'rganish va o'zaro nazorat orqali yordam berish imkoniyatiga ega bo'ladilar;
- Har bir o'quvchida gapirish imkoni bor, shu bilan birga barcha sinf bir paytda faol bo'ladi;
- Bundan tashqari, ijtimoiy kompetensiyalar ham rivojlanadi;
- Juftlikda ishlashda, kursdan tashqaridagi real hayotdagi suhbatlarga o'xshash til faoliyatları yuz beradi (restoranda buyurtma berish, shaharda yo'l so'rash, do'konda narx so'rash, vokzalda chipta xarid qilish, dam olish kunlari uchun rejalar haqida gaplashish va hokazo...);
- O'qituvchi uchun ham juftlikda ishlashni tashkil qilish juda oddiy va tez: faqat A va B juftlar uchun yetarli nusxadagi materiallar tayyorlanadi,
- Juftlar ishlayotgan vaqtida o'qituvchi savollarga javob berish yoki individual tarzda ayrim o'quvchilarga maslahat berish imkoniyatiga ega bo'ladi.



(Sheriklik jamoalarini shakllantirish uchun ayrim misollar)

Mazmunli sheriklik faoliyatiga erishish, ya'ni haqiqiy muloqotni ta'minlash uchun quyidagi mashq turlaridan foydalanish tavsiya etiladi: **a)** Bitta o'quvchi to'g'ri javobga ega, ikkinchisi esa bu javobni undan so'rab olishi kerak bo'lgan mashqlar; yoki **b)** Har ikki o'quvchi javobning faqat bir qismini biladi, va ular o'zaro axborot almashish orqali yetishmayotgan qismlarni to'ldirishlari kerak bo'lgan mashqlar. Juftlikda ishlash davomida ko'p hollarda o'quvchilar faol gapirishadi va odatda katta ishtiyoq bilan ishlashadi. Ayniqsa, odatda butun sinfda bo'layotgan suhbatlarda unchalik qatnashmaydigan o'quvchilar bu ijtimoiy shaklda ancha faolroq bo'lishadi. Biroq, juftlikda ishlashda ham ayrim salbiy ta'sir ko'rsatadigan omillarni hisobga olish zarur:

- Bir tilda so'zlashuvchi guruhlarda ba'zi o'quvchilar juftlikda ishlaganda faqat o'z ona tillarida gaplashishga moyil bo'lishadi.
- Ba'zi o'quvchilar oson chalg'ib, juftlikda ishlash vaqtida boshqa ishlar bilan shug'ullanishadi.
- Agar juftlarning til darajalari juda farqli bo'lsa, bu holat shunga olib kelishi mumkinki, faqat kuchliroq o'quvchi ishlaydi, boshqasi esa passiv qoladi.
- Agar juftlar orasida shaxsiy antipatiya (ya'ni bir-birini yoqtirmaslik) bo'lsa, bu holat juftlikda ishlashga salbiy ta'sir qilishi mumkin.

5. Yakka tartibda ishlash:

Ba'zi o'qituvchilarning interaktivlikka ko'p urg'u berib yo'l qo'yayotgan xatolaridan biri shuki, ular juftlik, guruh va umumiyl ishlarini almashib qo'llashadi, lekin alohida, yakka tartibdagi ishlarga yetarli e'tibor bermaydilar. O'quvchilarga esa ma'lumot olganlaridan (input) yoki kommunikativ bosqichlardan so'ng materialni yana bir bor yakka holda, alohida ko'rib chiqishlari, fikran tartibga solish va muhim joylarini yozib olishlari uchun vaqt berish ham muhim hisoblanadi. Shuningdek, matnlarni o'qish, yoki tinglab tushunish jarayoni aslida tabiiy ravishda har bir o'quvchi tomonidan yolg'iz amalga oshiriladi. Shu bilan birga yozuv bosqichlari (ya'ni matn yozish) ham yakka tartibda bajarilishi kerak. Bunda ishtirokchilar o'z so'z boyliklarini jamlab oladilar. Umuman olganda, yakka tartibda ishlash (Einzelarbeit) ayniqsa quyidagi vaziyatlarda foydali bo'ladi: Topshiriqlarda yoki

mashqlarda aniq bitta to‘g‘ri javob bo‘lsa va juftlik yoki guruhda ishlash yangi bilimlarni egallashda kamroq foydali bo‘lsa.

Ushbu maqolada tanishib chiqgan xorijiy tillarni o‘rganishdagi ijtimoiy ish turlaridan xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, xorijiy tillarni o‘rganishda interaktiv metodlar, ijtimoiy o‘rganish shakllari va muloqotga asoslangan muhitning yaratilishi ta’lim samaradorligini sezilarli darajada oshiradi, o‘qituvchi va o‘quvchi o‘rtasidagi faol hamkorlik, o‘zaro ishonch va ochiq muloqot til o‘rganish jarayonini yanada samarali qiladi, hamda dars jarayonida do’stona muhit shakllanishida yuqori hissa qo‘sadi. Tashkiliy va metodik yondashuvlar o‘zaro integratsiyalashgan holda qo‘llanganda, o‘quvchilar til kompetensiyalarini mustahkam egallaydilar va mustaqil fikrlash ko’nikmalarini rivojlantiradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Deutsch Lehren lernen 4 - 2014 Goethe-Institut, München
2. DaF unterrichten (Basiswissen Didaktik Deutsch als Fremd- und Zweitsprache) - Ernst Klett Sprachen GmbH, 70178 Stuttgart 2016
3. <https://www.4teachers.de/?action=show&id=672893&page=0>
4. <https://arbeitsblaetter.stangl-taller.at/> / LEHREN / Unterrichtsformen.shtml
(Stangl, 2025) - Unterrichtsformen